


XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi

Buxoro viloyatida 2026- yil yanvar-mart oylarida o‘rtacha oylik ish haqi 5 472,1 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,7 % ga o‘sgan.

Yillar kesimda o‘rtacha oylik ish haqi, *ming so‘m*



Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 2026- yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo‘lib, 2025- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so‘m	O‘sinh sur‘ati, % da
Buxoro viloyati	5 472,1	115,7
Buxoro shahri	6 868,4	119,5
Kogon shahri	7 888,7	117,8

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

<i>tumanlar</i>		
Olot	3 684,1	102,0
Buxoro	4 156,0	105,8
Vobkent	3 513,3	110,3
G'ijduvon	4 047,5	118,0
Kogon	5 648,2	102,4
Qorako'l	4 325,8	119,1
Qorovulbozor	7 982,9	116,3
Peshku	4 168,7	129,6
Romitan	4 491,3	107,6
Jondor	3 526,0	107,8
Shofirkon	3 589,8	111,5

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqilari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari bir qator hududlarda kuzatildi. Jumladan, Kogon tumani bu borada yetakchilik qilib, o'rtacha oylik ish haqi 4 168,7 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,6 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Buxoro shahrida 6 868,4 ming so'mni (o'tgan mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,5 %), Qorako'l tumanida 4 325,8 ming so'mni (119,1 %), G'ijduvon tumanida 4 047,5 ming so'mni (118,0 %), Kogon shahrida 7 888,7 ming so'mni (117,8 %) va Shofirkon tumanida 3 589,8 ming so'mni (111,5 %)ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Olot tumanida 3 684,1 ming so'mni (102,0%), Kogon tumanida 5 648,2 ming so'mni (102,4%), Buxoro tumanida 4 156,0 ming so'mni (105,8%), Romitan tumanida 4 491,3 ming so'mni (107,6%), Jondor tumanida 3 526,0 ming so'mni (107,8 %), Vobkent tumanida 3 513,3 ming so'mni (110,3%) hamda Qorovulbozor tumanida 7 982,9 ming so'mni (116,3%) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2026- yilning yanvar– mart oylariga oid bo'lib, 2025- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	6 928,0	112,2
Qurilish	4 839,2	101,8
Savdo	6 038,3	112,1
Tashish va saqlash	9 185,3	116,7
Yashash va ovqatlanish	2 470,6	75,5
Axborot va aloqa	10 509,9	110,6
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	18 250,2	119,7
Ta'lim	4 133,9	113,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 135,4	114,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	4 855,6	99,3
O'rtacha	5 472,1	115,7

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sanoat sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,7 % ni, ish haqi miqdori esa 18 250,2 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, tashish va saqlash yo'nalishlarida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 9 185,3 ming so'mni tashkil etib, o'sish 116,7 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ish haqi miqdori 4 135,4 ming so'mni tashkil etib, 114,2 % ga, ta'lim sohasida o'rtacha ish haqi 4 133,9 ming so'mni tashkil etib, 113,9 % ga oshganligi kuzatildi.


Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi yashash va ovqatlanish sohasida 2 470,6 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,5 % ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 4 855,6 ming so'm ni tashkil etib, 99,3 % ga, qurilish sohasida 4 839,2 ming so'mni tashkil etib, 101,8 % ga, axborot va aloqa sohasida 10 509,9 ming so'mni tashkil etib, 110,6 % ga, sanoat sohasida 6 928,0 ming so'mni tashkil etib, 112,2 %ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha dinamikasi.**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdorining so‘nggi besh yildagi o‘zgarishi tahlil etilganida, 2026- yilning I-choragida bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 18 250,2 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 11 120,6 ming so‘mga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, so‘nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo‘yicha ish haqi miqdori 6 617,5 ming so‘mga, tashish va saqlash sohasida 4 311,9 ming so‘mga, sanoat sohasida 3 072,2 ming so‘mga, san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasida 2 444,3 ming so‘mga, qurilish sohasida 1 785,9 ming so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.


**O‘rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi,
ming so‘m**



**O‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**


Sanoat sohasida oʻrtacha oylik ish haqi 6 928,0 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning tarkibi boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sohasida 9 214,2 ming soʻm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 6 741,2 ming soʻm, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish sohasida 5 354,1 ming soʻm, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 4 326,3 ming soʻm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining oʻzgarish dinamikasi, ming soʻm



Savdo sohasida oʻrtacha oylik ish haqi 6 038,3 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning tarkibi boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va motosikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 8 011,1 ming soʻmni, avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni taʼmirlash tarmogʻi 5 252,2 ming soʻmni, avtomobil va motosikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 3 213,1 ming soʻmni tashkil etgan.


Savdo sohasida ish haqi miqdorining oʻzgarish dinamikasi, ming soʻm



**Oʻrtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**


Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik ish haqi 9 185,3 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning ayrim sohalari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo‘jaligi va yordamchi transport sohasida 12 284,7 ming so‘mni, quruqlikdagi va quvur transporti 9 209,8 ming so‘mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 2 867,5 ming so‘mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, ming so‘m



Axborot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik ish haqi 10 509,9 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning ayrim sohalari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi aloqa sohasi 10 139,7 ming so‘mni, axborot xizmati ko‘rsatish 2 874,4 ming so‘mni tashkil etgan.


Axborot va aloqa sohasida ish haqi o‘zgarishi dinamikasi, ming so‘m



**O‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**


Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 18 250,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 24 992,9 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar 18 010,9 ming so'mni tashkil etgan.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm**



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 133,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 8 931,3 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 715,1 mingni so'm, texnik va professional ta'lim 4 480,1 ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasi 2 304,4 ming so'mni tashkil etgan.



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2025-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxonada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.